



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Mirzayeva Ra'no Abdumajitovna

*Samarqand Olimpiya va Paralimpiya zaxiralari kolleji
biologiya fani o'qituvchisi*

BIOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT KOMMUNUKATSIYA
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya darslarida axborot kommunukatsiya texnologiyalaridan foydalanish, AKT ning ahamiyati va undan foydalanish metodikasi haqida ma'lumot berilgan.

Bugungi kunda o`quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishda noan'anaviy, qulay va o`ylashga majbur qiladigan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari ishlab chiqilgan. Ushbu usullardan va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish barcha pedagog xodimlar oldiga turgan eng muhim vazifadir. Biologiya darslarida AKT dan foydalanib dars o`tish o`quv samaradorligini keskin o`sishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda dars o`tishning turli xil yo`l-yo`riq va vositalari ishlab chiqilmoqda. Masalan, sayohat darsi, amaliy va laboratoriya mashg`uloti darsi, kinoli dars, virtual laboratoriya darsi, konferensiya darsi, intellektual ring darsi, internet darsi va boshqa dars usullaridan biologiya darslarida keng foydalanilmoqda. Bu usullar ta'lif samaradorligini, o`quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishda muhim o`rin egallaydi.

Bugungi maktablar zamonaviy o`quv va o`quv-laboratoriya jihozlari, kompyuter sinflari, elektron darsliklar va o`quv darsliklar, uslubiy qo`llanmalar bilan jihozlangan. Shu o`rinda ta`kidlash joizki, kompyuter texnikasini faqatgina informatika fanidagina emas, balki uni boshqa fanlarni o`qitish jarayonida ham qo`llay olish har bir o`qituvchining vazifasidir.



Umumta'lim maktablarning biologiya fani o`qituvchilari dars jarayonida axborot kammunukatsion texnologiyalarining elementlarni, jumladan, axborot olish, uzatish, qayta ishlash kabi jarayonlarni sinab ko`radi. Buning uchun fanlarga doir o`quv pedagogik dasturlardan keng foydalanishni tashkil etish lozim. Natijada o`quvchilar tomonidan fanga oid axborotni izlash kabi amallarni bajarishga erishiladi. Bu esa o`quvchilarni izlanuvchanlikka chorlab, mantiqan fikrlash qobiliyatini o`stirishga va muammolarni hal etishda ularga yordam beradi. Foydalilanayotgan o`quv pedagogik dasturlardagi mavzular o`quvchi yosh xususiyatiga qarab tanlanadi. Ular oddiydan murakkabga qarab boruvchi misollar asosida tuzilgan bo`lishi kerak. Shuningdek, o`qituvchi mavzuni yoritishda hayotiy misollarga ega bo`lgan o`quv pedagogik dasturlardan foydalansa, o`quvchi mavzuni eslab qolishi uchun katta imkoniyat yaratiladi. Aksariyat o`quv pedagogik dasturlarda nazorat qilish imkoniyati bo`lib, bu o`quvchi bilimini baholashni yengillashtiradi. Oqituvchi tezkorlik bilan o`quvchi javoblarini tahlil qilib beradi, o`quvchi olgan saboqlarni asosida kompyuterdan samarali foydalanadi.

O`quvchi biologiya fanidan olgan bilimlarni o`quv jarayoniga tatbiq etib, o`z bilim va ko`nikmalarni mustahkamlash bilan birga olgan nazariy bilimlarini amaliyotda ham qo`llaydi. Natijada quyidagi ishlarni o`rganib, ularni amalda qo`llash imkoniga ega bo`ladi:

- matnlarga jadvallar tushirish;
- matnga turli rasm va shakhni joylashtirish;
- matnlarga metodlarni turli xil ko`rinishda shakllantirish;
- turli xil taqdimotlar yaratish;
- internetdan qo`shimcha ma'lumotlar olish;
- turli jadval va diagrammalar yaratish;
- axborotlar ustida mantiqiy fikrlash;
- jadvallar bilan ishslash va ularni tahlil qilish;
- virtual laboratoriyalardan foydalanish;
- elektron darsliklardan foydalanish;
- o`quv filimlardan foydalanish;

Kompyuterlardan samarali foydalanish uchun dastlab, maktablarda biologiya o`qituvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish maqsadida qo`shimcha mashg`ulotlar tashkil etish maqsadga muvofiq bo`ladi. Bu mashg`ulotlarda o`qituvchilarga:

- AKT ning Ms Word, Ms Power Point, Ms Exsel dasturlaridan foydalanib turli xil metodlar orqali topshiriqlar tayyorlash;,
- mayjud kompyutering imkoniyatlaridan kelib chiqib turli matn, grafik muharrirlari va jadvallar bilan ishslash kabi mavzular bo`yicha mashg`ulotlar tashkil etish;
- o`qituvchining virtual laboratoriylar, elektron darsliklar va o`quv filimlardan foydalanish yo`llarini o`rganish;
- o`qituvchilarning o`quv dasturlardan dars jarayonida foydalanish ko`nikmalarini oshirishga doir mashg`ulotlar tashkil etish;



- internet resurslari va modemlardan foydalanishni o`rgatish kabi mavzular maktab kompyuterlaridan unumli foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda biologiya darslarida AKT dan foydalanish dars samaradorligini oshiribibgina qolmay, balki o`qituvchi tomonidan berilayotgan mavzular orqali o`quvchilarning bilm, ko`nikma va malakasi yanada yuqori saviyada shakllantrib boradi. Bugungi texnika asridainternet orqali o`quvchilar kengroq va juda ko`p ma'lumotlarga ega bo`lishadi. Buning uchun biologiya fan o`qituvchisining ham kompyuter savodxonligi o`quvchilarnikiga nisbatan yuqori bo`lishi kerak.